

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 153 (942), 2023-yil 3-avgust, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



YANGI SANOAT LOYIHALARI IQTISODIYOT RIVOJI, AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHGA XIZMAT QILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2-avgust kuni Toshkent viloyatiga tashrif buyurib, yirik sanoat majmualari va sport obyektlari bilan tanishdi, yangi korxonalarni ishga tushirish marosimida ishtirok etdi.



Tashrif "Angren" erkin iqtisodiy zonadagi korxonalar faoliyati bilan tanishishdan boshlandi.

2012-yilda tashkil etilgan mazkur iqtisodiy zona so'nggi yillarda ham hudud, ham salohiyat jihatidan kengaydi. U Angren shahri, Ohangaron shahri va tumani, Bekobod shahrining bir qismini qamrab olgan. Bugun ushbu zonada 76 ta korxonalar, ularda 11 mingdan ziyod aholi ishlayotgan.

Ulardan biri — "Premier elektrotech" mas'uliyati cheklangan jamiyatining 23 million dollarlik loyihasi. O'tgan yili dekabrda ishga tushgan bu korxonaga yiliga 100 ming dona kir yuvish mashinasi va 200 ming dona sovitkich ishlab chiqarish hamda 1 million dollarlik eksport quvvatiga ega. 350 kishi ish bilan ta'minlangan.

Bu loyihaning birinchi bosqichi bo'lib, uni kengaytirish uchun qurilish olib borilmoqda. Ikkinchi bosqich shu yil dekabrda foydalanishga topshiriladi va ish o'rinlari 450 taga yetadi.

Jamiyat tomonidan, shuningdek, televizor, konditsioner kabi boshqa maishiy texnikalar ham ishlab chiqariladi. Raqobatbardosh bu mahsulotlar MDH mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

Davlatimiz rahbari Ohangaron tashrif yo'nalishi bo'yicha, bu xorijiy investitsiyalar jalb etish uchun katta imkoniyat ekanini ta'kidladi. Shu kabi korxonalar kengaytirish maqsadida elektrotexnika sanoati zonasini tashkil etish taklifi bildirildi.

Ohangaron metall quvurlar zavodining joyi besh yil oldin unumsiz dala edi. 2018-yildan boshlab sanoat majmuasi barpo etildi. 49 million dollarlik bu loyiha uchun uskunalar Turkiyadan olib kelindi. Yillik 205 ming tonna metall mahsulotlar tayyorlash quvvati yaratilib, 250 ta ish o'ri barpo etilgan. Joriy yilning 6 oyida qariyb 4 million dollarlik mahsulot eksport qilindi.

"Silk plast quality" korxonasi yiliga 13 ming tonna polimer quvurlar va fitting mahsulotlari tayyorlanadi. 78 kishining bandligi ta'minlangan.

Davlatimiz rahbari shu yerda "Angren" erkin iqtisodiy zonasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ko'rgazmasini ko'zdan kechirdi. Yangi loyihalarni shakllantirish, aholi bandligini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

"Angren" erkin iqtisodiy zonasida yana 42 ta loyiha bo'yicha ishlar boshlangan. Ularda 5 mingdan ziyod ish o'ri ochiladi. Shundan so'ng davlatimiz rahbari Yuqori Chirchiq tumanida barpo etilayotgan Futbol bo'yicha milliy terma jamoalar markazini borib ko'rdi.

Bu markaz Xalqaro futbol federatsiyalari assotsiatsiyasi (FIFA) bilan hamkorlikda tashkil etilmoqda. Hozirda 8 ming o'rinni stadion qurilgan. Yana 7 ta mashg'ulot maydoni, plyaj futbol maydoni, futzal manei, basseyn, reabilitatsiya majmuasi va yotoqxonalar qurilishi rejalashtirilgan.

Soha mutasaddilari bilan suhbatda milliy futbolimizga xorijdan malakali texnik direktor olib kelish, futbol tuzilmasini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Qoraqalpog'iston, Qashqadaryo, Jizzax, Namangan va Toshkentda mintaqaviy bazalar tashkil qilish, murabbiylar maktabini takomillashtirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Prezident yoshlar orasida futbolni yanada ommalashtirish, ularga sharoit yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

— O'zbekistonda futbol eng sevimli sport turi. Har o'n ta odamdan to'qqiztasi uning muxlisi, desa bo'ladi. Bu omma-viylikdan foydalanib, futbolni tubdan rivojlantirish kerak. Masalan, yurtimizda 10 mingta maktab bor, 208 ta tuman-shahar bor. Xo'sh, maktab, mahalla, jamoalarda futbol qanday bo'ladi? Ikkinchidan, futbolga mehr qo'ygan bolalar o'z yo'lini topishi uchun nima qilishimiz kerak? Uchinchidan, yoshlar futboldan ketgandan keyin nima bilan shug'ullanadi, ularga qo'shimcha kasb-hunar berishini ham o'ylash zarur, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari yosh futbolchilar bilan ham suhbatlashdi.

— Xalqimizning sportga mehri kuchli. Ayniqsa, futbol "oilaviy do'stimiz". Milliy terma jamoamiz o'yinlarini hammamiz g'urur, faxr, hayajon bilan kuzatamiz. Sizlar oilada ota-onangizning farzandi bo'lganingiz bilan maydonda xalqimizning farzandisizlar. Ana shuni doim yodda tuting, — dedi Prezident.

Futbolchilarda Vatan tuyg'usini shakllantirish muhimligi ham ta'kidlandi.

— Futbolchilar dunyo kezadi, chet el jamoalarida o'ynaydi. Ular O'zbekiston tarixini, sharoitlarini yaxshi bilishi kerak. Ular bizning eichilarimiz, bolalarga namuna, — deya ta'kidladi davlat rahbari.

Futbol tibbiyoti va reabilitatsiyasini jahon yutuqlari asosida rivojlantirish masalalari ham ko'rsatib o'tildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Chirchiq qishloq mashinasozligi klasteriga tashrif buyurib, u yerda ishlab chiqarilgan birinchi mahalliy mahsulot — universal traktor bilan ham tanishdi.

Bu klaster O'zbekiston Prezidentining 2021-yil 11-noyabrda qaratilgan asosan

tashkil qilingan edi. Mashinasozlikdagi 5 ta korxonalar quvvatlari maqbullashtirilib, Chirchiq qishloq xo'jaligi texnikasi zavodi negizida to'liq sikll klaster tizimi yo'lga qo'yildi. Buning uchun qariyb 38 ming kvadrat metr yangi inshootlar qurilib, 35 ming kvadrat metrdan ziyod mavjud binolar ta'mirlandi.

Klaster yiliga 15 ming dona traktor, tirkama va boshqa texnikalar ishlab chiqarish quvvatiga ega. Mingta ish o'ri yaratilgan. Yana bir muhim tomoni, tarmoq korxonalarida kooperatsiya kengayishi, xarajatlarni va mahsulot tannarxi qisqarishiga erishilgan.

Yaqinda klasterda birinchi mahalliy mahsulot — universal traktor ishlab chiqarildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev uning ilk namunalarini ko'zdan kechirdi.

Shuningdek, kombayn ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yilmoqda. Bu ishlarni davom ettirib, import mahsulotlarni mahalliyashtirish, bu jarayon xususiy sektorni jalb etish muhimligi ta'kidlandi.

Davomi 2-betda

YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!



BO'LAR EKAN-KU

YOXUD BUGUNNING KECHADAN FARQI NIMADA?

Kuni kecha Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Bayramga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayoni "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" degan bosh g'oya asosida amalga oshirilishi belgilab olindi.

Hech shubhasiz, mustaqillik yillari xalqimiz asrlar davomida orzu qilib kelgan ozodlik, erk va erkinlik yo'lidagi kurashlarining mantiqiy natijasi bo'ldi. Bu yillar mobaynida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarida ulkan yutuqlarga erishildi. O'zbekiston jahon hamjamiyatining to'laqonli a'zosi bo'ldi.

Olti-yetti yil avval boshlangan yangilanishlar, xalq manfaatlaridan kelib chiqqan holda o'tkazilayotgan islohotlar, yangi O'zbekistonda barpo etish yo'lidagi dadil qadamlar nafaqat xalqimiz, balki jahon hamjamiyati tomonidan ham ko'tarinki kayfiyat bilan kutib olinmoqda.

Bugun xalqimiz yangi O'zbekiston, aslida, yangi hayot uchun kurash ekanini, bu yo'lidagi sa'y-harakatlarsiz barcha sohalarida uzoq yillar davomida to'planib qolgan muammolarni hal etish aslo mumkin emasligini yaxshi anglab turibdi.

Qolaversa, yangi O'zbekistonda barpo etish yo'lidagi har bir kun biz uchun avvallari xayolimizga ham kelmagan imkoniyat va istiqbollarni yaratib bermoqda. Shu nuqtayi nazardan, yuqorida nomi qayd etilgan qarorda o'tgan qisqa, ammo tarixiy jarayonlar, islohotlarga boy davr mazmun-mohiyatini ochib berish lozimligi ta'kidlanadi. Mazkur vazifani "Har bir kun — bu imkoniyat, har bir kun — bu kelajak uchun poydevor" hayotiy shiori

mohiyati va ahamiyati ila ochib berilishiga e'tibor qaratilgani ham bejiz emas.

Shunday ekan, vazifamiz ana shu ikki davrni adolat tamoyillariga amal qilgan holda xolis tahlil qilishdan iborat. Tahlillarni "Kecha" (1991-2016-yillar) va "Bugun" (2016-yildan so'ng) rukni ostida amalga oshiramiz. Ularning ayrimlari quyidagilardan iborat.

Kecha mamlakatimizda majburiy mehnat avj olgani bilan ajralib turadi. Xalqaro mehnat tashkilotining Majburiy mehnat to'g'risidagi 29-konvensiyasida, keyinchalik uning 2014-yildagi qo'shimcha bayonnomasida majburiy mehnat qattiq taqiqlangan, uni amalga oshirish inson huquqlarini poymol qilishdan iborat ekani

qayd etilgan bo'lsa-da, uzoq yillar davomida bu masalaga bizda e'tibor berilmadi.

Ayniqsa, oq paxta biz uchun "qora dog"ga aylandi. Vaziyat shu darajaga yetdiki, 2010-yilda mamlakatdagi va xorijdagi inson huquqlari faollari O'zbekistonda paxta yetishtirishda majburiy mehnat, ayniqsa, bolalar mehnatidan foydalanilgani uchun o'zbek paxtasiga boykot e'lon qilish bo'yicha petitsiyaga imzo chekdil.

Mazkur davrda ijtimoiy hayotning qaysi jabhasida bo'lmasin, xodimlarni asosiy ish faoliyatidan ish paytida ajratib olib, go'yo "ijtimoiy foydali mehnat" bahonasida turli vazifalarni bajarishga majbur qilish odatiy hol bo'lib qoldi. Bu, ayniqsa, ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, sog'liqni saqlash sohasida avj oldi. Maktab o'qituvchilari o'z faoliyatining qariyb chorak qismida qishloq xo'jaligi, obodonlashtirish, boshqa tashkilotlar funksional vazifalariga kirgan topshiriqlarni bajarishga majbur bo'ldi.

Davomi 3-betda

MUNOSABAT



BOY MINERAL RESURSLAR

SARMOYAVIY JOZIBADORLIK MANBAI

Iqtisodiy taraqqiyotni sanoat tarmoqlari rivojisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, bugun kimyo sanoati, qurilish, mashinasozlik, elektrotexnika yo'nalishlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hayotimizga tobora ko'proq kirib kelmoqda. Ular orasida yetakchilardan yana biri tog'-kon sanoatidir.

Davomi 2-betda

YANGI SANOAT LOYIHALARI IQTISODIYOT RIVOJI, AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHGA XIZMAT QILADI

Boshlanishi 1-betda

— Qishloq xo'jaligimizda texnikaga talab katta. Bizga arzon, muqobil, tejamon texnika kerak. Buning uchun mahalliy lashtirish va tannarx bo'yicha ishlash zarur. Dehqonlarga arzon texnika yetkazib bermasak, manfaatdorlik bo'lmaydi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari texnikalarga xizmat ko'rsatishning ahamiyatiga alohida to'xtaldi.

— Bu klaster faqat sotuvchi emas, xizmat ko'rsatuvchi ham bo'lishi kerak, — deya ta'kidlandi.

Toshkent viloyati misolida servis maskanlari tashkil etish, yoshlarni bepul o'qitib, sifatli xizmatlarni yo'lga qo'yish bo'yicha topshiriq berildi.

Klasterda ilm-fan va ishlab chiqarishni uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, shu maqsadda zamonaviy ilm markazi ishga tushirildi. Bu yerda Germaniya va Shvetsiya kompaniyalarining ta'lim markazlari bilan hamkorlikda uzluksiz dual ta'lim shaklidagi o'quv jarayonlari yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalari talabalari nazariy bilimlarini klasterda amaliyot bilan mustahkamlab boradi.

Prezidentimiz mahsulotlar namunalari ko'zdan kechirdi, mutaxassislar bilan suhbatlashdi.

— Hozir joylarda, klasterlarda paxtani mashinada terish 50 foizga yaqinlashmoqda. Bu yil 6 oyda mevasabzavotning o'zidan 550 milliondan ko'p eksport qildik, yaqin kelajakda 2-3 milliardga yetkazmoqchimiz. Qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yana loyihalar ko'p. Ularda mahsulotlikni oshirish, odamlar mehnatini yengillashtirish uchun sifatli, hamyonbop texnikalar zarur, — dedi Prezident.

Klaster faoliyatida muqobil elektr energiyasi manbalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, 20 ming kvadrat metr maydonda quyosh batareyalari o'rnatildi. Bu klasterning elektr energiyasiga talabining 30 foizigacha ta'minlashi mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyatiga tashrif chog'ida "Chirchiq" kimyo-industrial texnoparkida bo'ldi.

Tatariston Respublikasi bilan hamkorlikdagi mazkur texnopark o'tgan yil 23-mart kuni ochilgan edi. Bugungi kunda 10 million dollardan ziyod 5 ta korxonaga ishga tushirilgan. Joriy yil yakuniga qadar qiymati 18 million dollar bo'lgan yana 8 ta loyiha amalga oshiriladi.

Xususan, "Rodium Polimer" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ko'pkilantirilgan polipropilen mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Koreyalik ishlab chiqarish bilan birgalikda amalga oshirilgan bu korxonada yiliga 2 ming tonna mahsulot ishlab chiqarilib, 2 million dollarlik eksport qilinadi.

Shu yerda Toshkent viloyatidagi yangi sanoat, xizmat ko'rsatish va ijtimoiy soha majmualarini ishga tushirish marosimi bo'ldi. Bular — Ohangoran tumanidagi "Tashkent Konch sement", Quyi Chirchiq tumanidagi "Tashkent koton tekstil", Yuqori Chirchiq tumanidagi "Aziya Tashkent Tekstil", "Salyubris Vita", Angren shahridagi "Angren kaolin", "Sentral Aziya Kemikals", Nurafshon shahridagi "Agro Nyu Drip", Chirchiq shahridagi "Sharq Tyubs", Parkent tumanidagi "Samsarak fayz" va "Shabnam Elegant"lardir.

Bu korxonalar sement, ip-kalava, to'qimachilik, farmatsevtika, boyitilgan kaolin, kimyo mahsulotlari, tomchilatib sug'orish shlanglari, rangli metallar ishlab chiqariladi. Umuman, mazkur korxonalarda 3 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratiladi.

Davlat rahbari ramziy tugmani bo'sib, yangi korxonalarni ishga tushirdi.

Shundan so'ng Prezident raisligida kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash hamda mahalliy byudjet daromadlarini ko'paytirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Videoaloqa orqali u Qoraqalpog'iston Respublikasi rahbariyati, barcha viloyat va tumanlar hokimlari ham kuzatib bordi.

O'tgan yilda Toshkent viloyatida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtirish hajmi 135 foizga o'sib, 480 million dollarni tashkil qilgani ta'kidlandi. Shuningdek, o'tgan olti oyda investitsiya dasturlari doirasida 240 million dollarlik 322 ta loyiha ishga tushirilib, 8 mingta ish o'rni yaratilgan.

Lekin ayrim tuman va shaharlarda faqat kichik va o'rta loyihalar bilan cheklanib qolinmoqda. Misol uchun,

O'rta Chirchiq, Chinoz, Qibray, Toshkent, Yangiyo'l tumanlari va Nurafshon shahrida birorta ham yirik loyiha yo'q.

Shu bois, har bir tuman va shahar hokimiga yil yakuni bilan kamida 100 million dollardan to'g'ridan-to'g'ri investitsiya jalb qilish vazifasi qo'yildi.

Joriy yilning olti oyida viloyatda 440 million dollarlik eksport amalga oshirilgan. Sanoat va xizmat sohasi ko'rsatkichlari ham oshgan. Lekin ayrim tuman va shaharlar kesimida olganda, tushgan. Bu yil qurilishi reja qilingan 114 ta ko'p qavatli uy-joylardan hozirgacha atigi 9 tasi foydalanishga topshirilgan.

Bu borada kamchiliklarga yo'l qo'yg'an bir qator rahbarlar lavozimidan ozod qilindi.

Prezident joylarda soliq bazasini kengaytirish uchun mavjud imkoniyatlarni sanab o'tdi. Har bir tadbirkorning muammosini hal qilishga alohida soliqchi mas'ul bo'lishi belgilandi. Soliq idoralarni korruptsiyadan xoli tuzilmaga aylantirish, xodimlarining ma'naviy-axloqiy qiyofasini yaxshilash dolzarbligini ta'kidlandi.

Aholi bandligini ta'minlash va imtiyozli resurslarning yetib borishini osonlashtirish choralarini belgilandi. Unga ko'ra, endilikda hokim yordamchilari o'zini o'zi band qilganlarning kichik va o'rta biznesga o'tishiga ko'maklashadi.

Buning uchun Yaponiya tajribasi asosida hududlarda biznes-inkubator va akseleratorlar tizimi joriy etiladi. Bunda, salohiyatli tadbirkorlarga dastlabki aylanma mablag'lari uchun "ulushdorlik" kapitali beriladi.

"20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis" dasturi asosida 400 ming aholi bandligini ta'minlash tashabbusi qo'llab-quvvatlandi.

Yig'ilish yakunida tegishli vazirlik va idoralar, hududlar rahbarlarining axboroti tinglandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Abdulaziz MUSAYEV,
O'ZA muxbirlari

MULOHAZA

BU KUNLARNING QADRIGA YETISH KERAK

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi faollari, bir guruh ma'rifat targ'ibotchilarining O'zbekiston xalqiga murojaatini o'qib, hayotimizga daxldor dolzarb masalalar ko'tarilganidan mamnun bo'ldim.

Darhaqiqat, bugun turmush tarzimiz tubdan o'zgardi, yangicha dunyoqarash paydo bo'ldi. Ba'zilar shaxs erkinligini suiste'mol qilib, o'z istak-maylini jilovlay olmaydigan, jamoatchilikni nazar-pisand qilmaydigan, qonun-qoidalariga rioya qilishni istamaydigan darajaga yetib qoldiki, bu bilan demokratik davlatda xohlagan gapimni gapiraman, xohlagan yo'lga yuraman, har maqomga yo'rg'alayman, degan tushunchalar paydo bo'ldi. To'g'rirog'i, bunday tushunchani bizga yo'l bo'lgan, ongimizni zaharlashga xizmat qiladigan g'oyafurushlardan o'zlashtirish boshlandi. Ijtimoiy tarmoqlar esa ayrim yosh avlod vakillarini osongina o'ziga og'dirib, milliy, qadriyatlarimizdan uzoqlashtirishga xizmat qilyapti. Chunonchi, xorijni qo'ying, o'zimizning telekanallarda berilayotgan seriallar, kitob do'konlarida sotilayotgan xorij adabiyotlari, ijtimoiy tarmoqlardagi fahshga o'rgatuvchi havolalar bunday yoshlarning quyushqondan chiqib ketishiga yordam bermoqda. Buni ko'ra-bila turib, o'ta-onalar, jamoatchilik bafarq qaramoqda. Nahotki, nazorat qiladigan, chora ko'radigan muassasalar yo'q bo'lsa?

Murojaatda: "Yosh avlodimizni eng ilg'or ilm va kasb-hunarlar bilan qurollantirib, zamon bilan hamnafas, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida, har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, uni turli yot va begona ta'sirlardan asrash birinchi galdagi vazifamizga aylanoqda", deyilgan. To'g'ri, bu kabi ishlarni amalga oshirish uchun kimqadir majburiyat yuklash, kimqadir huquq berish va aybdorlarga nisbatan keskin choralar ko'rish kerak. Aks holda, aytilgan gap gapligicha qolaveradi. Millatni millat, davlatni davlat qiladigan ma'naviyatdir. Rivojlanish bo'lgani bilan axloq bo'lmasa, ma'naviyat, qadriyat degan tushunchalar ahamiyatini yo'qotadigan bo'lsa, ma'naviy tanazzul, parokandalik bo'lishi turgan gap.

Tunov kuni Namangon viloyatidagi Chindovul qishlog'ida yashovchi keksa otaxonlardan biri Yusuf bobo Otayevning duosini olishga borganim. Gap orasida Yusuf bobo:

— Men bir ming to'qqiz yuzu yigirma sakkizinchida tug'ilganman. Aytinch, necha yoshga kiribman? — deya menga savol berdi.

— To'qson beshga, — dedim.

— Shuncha yil davomida bunaqa to'kinchilik, xotirjamlik, obodonchilik bo'lganini ko'rganim yo'q. O'charchilik yillarida odamlar "non, non, non", deb jon bergan. Bu kunlarning qadriga yetish kerak, — dedi bobo.

O'ylanib qoldim. Bu oqsoqlor eng qiyin zamonlarni boshidan kechirgan inson sifatida shu gaplarni beg'urub berib aytmayotgandir.

Demak, bugungi yoshlar nimaning evaziga to'kinchilik bo'layotganini bilishi shart!


Ayrim yoshlar o'qishga ham, mehnatga ham layoqatsiz. Sport bilan shug'ullanmaydi. Ammo oliftagarlikda dimog'i osmonda. Hovlisini o't, ko'cha eshigini tikan bosib yotsa-da, parvoyi falak. Bundaylar ertaga og' qolsa, kindik qoni to'kilgan muqaddas tuproqni-da sotib yeyishdan toymaydigan bo'lib qolishiga kim kafolat beradi? Chunki ularning qalbidan vatanparvarlik degan tuyg'u yo'q. Bafarqlik — eng yomon illat! Agar bu illat ommaga yuqadigan bo'lsa, odamzod har qancha olifta bo'lmasin, eng badbo'y botqoq ichida yashayotganini sezmay qoladi. Eng katta qusurimiz — zeb-ziyonatlar, hashamlar uchun boyligimizni ayamaymiz, lekin ma'naviyat va ma'rifat uchun, qadriyat uchun sariq chaqa sarflagimiz kelmaydi. Bir kor-hol yuz bera, borimizni sotib bo'lsa ham uni bartaraf qilishga kirishamiz. Lekin jinoyatchilar toifasiga kiruvchi xoin, firibgar, qotil, o'g'ri, tekinox'r o'z maqsadiga yetgan bo'ladi.

Shu o'rinda bir taklif kiritmoqchiman. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tarkibida ma'rifat targ'ibotchilari guruhi tuzilgan. Ular vaqti-vaqti bilan viloyatlarga chiqib, joylarda tashviqot ishlari olib boradi. Mana shunday guruhlari viloyat va tuman hamda shaharlar tizimida ham tuzilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Zero, bugun ma'naviy targ'ibot har qachongidan-da ko'proq kerak.

Muhiddin OMAD,
jurnalist



MUNOSABAT



BOY MINERAL RESURSLAR SARMYOYAVIY JOZIBADORLIK MANBAI

Sunnatilla G'OIBNAZAROV, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Boshlanishi 1-betda

Gap tayyor foydali qazilmalarni eski usullarda shunchaki qazib olish haqida bormayapti. Hozir bu tarmoq ancha rivojlangan va yurtimizda geologiya sohasiga so'nggi yillarda katta e'tibor qaratilyapti. Zamonaviy texnologiyalar joriy qilinib, yer osti boyliklarini aniqlash, qazib olish va qayta ishlash tamoman yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Davlatimiz rahbari joriy yil 1-avgust kuni foydali qazilmalar zaxirasi va ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishga oid taqdimot bilan tanishar ekan, yurtimiz tog'-kon sanoatiga ilm-fan va innovatsiyalarning faol joriy qilinishi o'z samarasini berayotganini ta'kidladi. Xususan, so'nggi olti yilda kaolin ishlab chiqarish hajmi qariyb 2 barobar ko'payib, eksport 65 million dollarga yetgan. Shu davrda ko'mir qazib chiqarish 1,4 barobar oshib, 5,4 million tonnani tashkil qildi. Natijalarning oshib borishida investitsion loyihalarning ulushi ham yuqori. Jumladan, oxirgi yillarda kaolinni qayta ishlash bo'yicha 148 million dollarlik 15 ta yangi loyiha ishga tushirilgani buning isboti.

Ma'danlarga boy zamin

Mamlakat iqtisodiyotida geologiya-qidiruv ishlarini samarali tashkil etish sanoatning rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Bu ko'plab sohalarda mineral xomashyoga bo'lgan talabning o'sib borayotgani bilan bog'liq. Masalan, birgina qora metallar bo'yicha, ko'mir, temir rudalari, qurilish sanoati uchun mo'ljallangan

halarda yiliga 4 million tonna qora metall ishlatiladi. 2026-yilga borib, ushbu turdagi mahsulotga bo'lgan ehtiyoj 6 million tonnaga yetishi taxmin qilingan. Umumiy metallarga bo'lgan talabning o'sishi esa mamlakatimizda yiliga 3-5 foiz atrofida baholalanmoqda.

Ya'ni tog'-kon sanoati mahsulotlariga talab oshib bormoqda va bu jarayon shu tarzda davom etadi. Boshqa tomondan, mavjud zaxiralarni kamayib borayotgani ham sohada jiddiy va zamonaviy yondashuvlarni talab etadi. Masalan, mineral xomashyoga bazasini rivojlantirish, ma'danlarni qazib olish va ishlab chiqarishda samaradorlikni oshirish muhim. Jahon ekspertlarining fikricha, insoniyat kelajakda foydali qazilmalarning ko'plab turlari, jumladan, strategik zaxiralarni to'ldirish muammosining jiddiy kuchayishiga duch kelishi mumkin. Bu nafaqat qayta tiklanmaydigan foydali qazilmalarning umumiy kamayib ketishi, balki yetishish qiyin bo'lgan va unumdorligi past konlar, xususan, ularning noan'anaviy turlarini ko'proq o'zlashtirish zarurati bilan bog'liq. Ko'pgina mutaxassislar va tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, mineral resurslar zaxirasini faqat chuqurlikda yashirishdan konlarni ochish orqali yanada kengaytirish mumkin. Buning uchun esa sohaga ilm-fan va zamonaviy texnologiyalarni faol jalb etish talab qilinadi.

So'nggi yillarda soha oldida turgan asosiy vazifalardan biri ham shu. Bu mamlakatimizning investitsiya faolligini oshirish tendentsiyasini saqlab qolishning natijadorligida ham namoyon bo'lmoqda. Gap shundaki, O'zbekiston noyob geosiyosiy mavqei, boy mineral resurslari, yuksak ilmiy mehnat va madaniy salohiyati bilan mintaqada alohida sarmoyaviy jozibadorlikka ega. Ona diyorimizda rangli, nodir va qimmatbaho metallar, ko'mir, temir rudalari, qurilish sanoati uchun mo'ljallangan



noruda xomashyosi konlarida qidiruv ishlari o'rganilganida, mavjud resurs salohiyatimizga ijobiy baho berilgani ham buni tasdiqlaydi. Ayni vaqtdagi imkoniyatlarimiz mineral xomashyoni chuqur qayta ishlash uchun yuqori rentabelli tog'-kon sanoati tarmoqlarini yaratish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

Agar so'nggi yillarda nazar tashlasak, yurtimiz tog'-kon sanoatida jadal o'sishni kuzatish qiyin emas. Tarmoqni zamonaviylashtirib borish hisobiga mineral xomashyolarni qazib olib, ishlab chiqarish bilan birga, geologiya-qidiruv ishlari ham kengayib bormoqda. Kon-metallurgiya sanoati xomashyoga bazasini kengaytirish, yangi quvvatlarni ishga tushirish va mavjud korxonalarni rekonstruksiya qilish faollashdi. Natijada bu tarmoqning mamlakat iqtisodiyoti rivojidagi ulushi oshyapti.

Ilmga asoslangan ishlab chiqarish

Yurtimiz kon-metallurgiya majmuasi qator konchilik, boyitish va metallurgiya korxonalarini bilan ifodalangan. Ular orasida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ muhim o'rinni egallaydi. Xususan, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati mis-molibden, rux-qo'rg'oshin, polimetall va oltin tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash

bo'yicha nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda ham mavqeinu mustahkamlab bormoqda. Yirik kon-metallurgiya korxonasi mis mahsulotlarini qazib olish va ishlab chiqarish bo'yicha dunyodagi 30 ta eng yirik korxonadan birinchi joy olgan. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotining 7 foizi, eksport hajmining 15 foizi mazkur kombinat hissasiga to'g'ri keladi.

Umuman, ona diyorimiz nodir metallarni qazib olish va ishlab chiqarish bo'yicha ishonchli xomashyoga bazasiga ega. Ulardan ba'zilar ilitiy kabi mustaqil konlarda to'plangan bo'lsa, boshqalari mis, polimetallar, uran va boshqa foydali qazilma konlaridan komponentlar sifatida olinishi mumkin. Ma'danlarning har biri sanoatda asqatadi. Masalan, selen va tellurdan asosan yarimo'tkazgichlar, quyosh batareyalari, termogeneratorlar, po'latning maxsus navlari va shisha ishlab chiqarishda foydalaniladi. Reniy esa aviatsiya va kosmik texnika uchun issiqlikka chidamli qotishmalar, elektron qurollar va neftni krekinglash uchun katalizatorlar ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

Bir so'z bilan aytganda, yurtimiz mineral xomashyoga bazasining hozirgi holati nafaqat mavjud tog'-kon va qayta ishlash korxonalarini quvvatlaridan foydalanishni ta'minlaydi, balki oltin, kumush, mis, kaolin, shpati, fosforli hamda kaliyli o'g'itlar va boshqalarni ishlab chiqarishda yangi quvvatlarni yaratishga imkon beradi.

Bu kabi ishlarni amalga oshirish, sohani ilmiy rivojlantirishda salohiyatli kadrlarga bo'lgan talab ortadi, albatta. Birgina Toshkent davlat texnika universiteti misolida oladigan bo'lsak, ta'lim dargohida ushbu sohaga yo'naltirilgan Geologiya-qidiruv va kon-metallurgiya fakultetida 16 ta yo'nalish mavjud. Ularda 3500 dan ortiq

talaba tahsil olyapti. Bo'lajak geologlarga 150 dan ortiq ilmiy salohiyatli professor-o'qituvchilar saboq beradi.

Zamonaviy bilim berish zarurati doimiy yangilanishlarni talab etadi. Geologiya-qidiruv va kon-metallurgiya sohasi ham bundan mustasno emas. Puxta bilim egalar, ertaga o'z ishini ustasi bo'ladigan, boshqalarga ham kasbini o'rgatadigan kadrlar tayyorlash oldimzidagi asosiy vazifalardan biri. Buning uchun universitetda bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mavjud o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqilib, maxsus fanlarni birmuncha chuqurlashtirib o'qitish yo'lga qo'yildi, ular turdosh mutaxassisliklar ehtiyojlari bilan birlashtirildi. Mutaxassisliklarning o'ziga xos xususiyatini umumlashtiruvchi yagona o'zaro bog'liq fanlar ishlab chiqilib, o'quv dasturlariga joriy etilmoqda. Malakaviy amaliyotlar bo'yicha o'quv jarayoni jadvaliga o'zgartirish kiritildi va hozirga.

Sohada amaliyot juda muhim ekani ayon. Universitet o'quv xonalari va amaliyot laboratoriyalari ayni shu talabalarga moslashtirilyapti. Bu borada xorijiy oliy o'quv yurtlari bilan korporativ aloqalarni yo'lga qo'yish ishlari ham jadallashgan. Ular orasida Rossiya Federatsiyasining Moskva davlat geologiya-qidiruv hamda Sankt-Peterburg davlat konchilik universitetlari kabi yetakchi oliy ta'lim muassasalarini alohida ta'kidlash joiz.

Ana shunday ilmiy va zamonaviy yondashuvlar, ilg'or texnologiyalar yurtimiz geologiya sohasidagi katta, avvalgilardan bir necha barobar ko'p natijalarga zamin yaratyapti. Zero, bugungi maqsadimiz yer osti boyliklarimizni qazib olishdangina iborat emas. Ularning tabiiy zaxiralarni yaratish, qayta ishlash, tayyor mahsulotni eksportini oshirish va albatta, sohada malakali kadrlarni tayyorlash ham oldimzidagi muhim vazifalardan.

YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

BO'LAR EKAN-KU

YOXUD BUGUNNING KECHADAN FARQI NIMADA?



Abduxalil MAVRULOV,
tarix fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Natijada ta'lim sifati keskin tushib, o'qituvchi, murabbiylarning tizimdan boshqa sohalarga o'tib ketishi ko'paydi. O'quvchilarning ilg'or mamlakatlardagi o'z tengdoshlaridan bilim saviyasi bo'yicha ko'rsatkichlari pastlab ketdi.

Bugun esa davlatimiz rahbarining sa'y-harakati bilan majburiy mehnatga barham berildi. **Aslida, majburiy mehnatni ta'qiqlash bo'yicha jiddiy ishlar 2017-yilning avvalidan boshlangan edi.** Bu jarayonda ommaviy axborot vositalarining faol harakati ham esdan chiqarilmaslik lozim.

Xalqaro tashkilotlar, ekspertlar O'zbekistonning bu boradagi sa'y-harakatlarini doimo qo'llab-quvvatlab turdi. 2022-yil 10-mart kuni majburiy mehnatning bekor qilinishi, rahbariyatning mazkur masala bo'yicha qat'iy munosabatini e'tiborga olib, "Cotton Campaign" xalqaro koalitsiyasi O'zbekiston paxtasiga joriy etilgan bo'ykotni bekor qildi. Shunday qilib, 12 yil davom etgan bo'ykot barham topdi. Bu O'zbekistonning xalqaro hamjamiyat oldida erishgan katta va salmoqli yutuq bo'ldi.

Mazkur masalada O'zbekiston rahbariyatining munosabati qat'iy ekani yangi tahrirdagi Konstitutsiya misolida ham ko'rinadi, unda majburiy mehnat ta'qiqlandi.

Kecha biz uchun ko'plab masalalar, bajarilishi qiyin bo'lgan vazifalar atayin jamiyatlardan yashirildi. Shuning uchun ham bu davrda "yopiq mavzu"lar soni talaygina bo'ldi. Ana shunday "yopiq mavzu"lardan biri **kambag'allik masalasi edi.** Inson har doim yaxshi yashashga, farovon turmush kechirishga, birovdan kam bo'lmaslikka harakat qiladi.

Biroq O'zbekiston sharoitida biz "kambag'allik" so'zini ishlatishga shoshmadik. Aniqroq aytadigan bo'lsak, biz o'zimizni o'zimiz aldadik, rasmiy ma'lumotlarda bu haqda axborotlar berishni ep ko'rmadik. Kambag'allik so'zi o'rimga "ehtijomand", "kam ta'minlangan", "kam ta'minlangan" kabi so'zlarni ishlatishga majbur bo'ldik. Bu omil rasmiy doiralarda muayyan darajada xotirjamlik kayfiyatini paydo qilgan bo'lsa-da, **aholining kambag'allik darajasi, shunga mos ravishda ijtimoiy norozilik yildan-yilga ortib boraverdi.**

Bugun esa O'zbekiston hukumati katta siyosiy iroda ko'rsatib, kambag'allik muammosi mavjud ekani, u uzoq yillar davomida shakllangan, o'ta ayanchli holatga aylanib borayotganini baralla aytishdan cho'chimadi. Tariximizda ilk bor mazkur masala 2020-yil 24-yanvarda O'zbekiston Prezidentining Oliy Majlisi Murojaatnomasida ko'tarildi. Ana shu paytdan boshlab bu masala O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy siyosatining eng dolzarb masalasiga aylandi.

Ayrimlarda aholiga moddiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy nafaqa tizimini yaxshilash, turli imtiyozlar berish bilan kambag'allik muammosini hal etsa bo'ladi, degan fikr bor. Masalaga bu taxlit yondashuv bir yoqlamadir. Buning natijasida ayrim masalalarni muayyan makon va vaqt holatida hal etish mumkindir. Lekin bunday yondashuv jamiyatda yillar davomida shakllangan kambag'allik muammosini aslo hal etmaydi. **Kambag'allikni kamaytirishning eng ishonchli va tez hal etish yo'li esa aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.**

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha xorij tajribasi jiddiy o'rganildi.

Uning aniq mexanizmlari ishlab chiqildi, kambag'allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash usuli, aholi moddiy ta'minotining minimal standartlari va me'yoriy asoslari puxta ishlab chiqish maqsadida Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro tashkilotlarning 14 eksperti jalb qilindi. Bugungi kunda 2021-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish konsepsiyasi asosida jiddiy ishlar amalga oshirilmog'chi.

2022-yil yakunlariga ko'ra kambag'allik darajasi 17 foizdan 14 foizga kamaygan. Yil davomida 200 ming tadbirkorlik subyekti tashkil etildi, 10 ming korxonada faoliyat kengaytirildi, 11 mingtasining quvvati tiklandi. **Olib borilgan ishlar natijasida bugungi kunga kelib, 1 million kishi kambag'allikdan chiqarildi.**

Kecha nihoyatda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan holda mamlakat iqtisodiyoti, xususan, sanoat sohasidagi tub islohotlar O'zbekistonni sanoati rivojlangan davlatga aylantirishga imkon bermadi. Shu bilan birga, mavjud sanoat sohasi mamlakat va aholining tobora ortib borayotgan tabiiy ehtiyojlarini qondira olmadi. Ayniqsa, davlat korxonalarini transformatsiyasi hamda xususiy-lashtirish jarayonlarini jadallashtirish yuz bermadi. Samarasiz korxonalar soni yildan-yilga ortib boraverdi.

O'zbekiston sanoatini rivojlantirishning fundamental drayverlarini yaratishda sust-kashlikka yo'l qo'yildi. Sohaga zamonaviy, yuksak texnika va texnologiyalar joriy etilishidagi kamchiliklar esa mehnat unumdorligini oshirishga yo'l qo'ymadi.

Yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat ishlab chiqarishi sohasi ulushi 2016-yilda 19,5 foizni tashkil etgan, xolos. Sanoat ishlab chiqarish sohasiga jalb etilgan investitsiyalar hajmi 2010-yilda arang 4,9 trillion so'm bo'lgan.

Bugun esa yangi O'zbekiston milliy iqtisodiyotining eng muhim yo'nalishi bo'lgan sanoat sohasini rivojlantirish asosiy vazifaga aylandi. Mamlakatimiz **agrar-industrial davlatdan industrial-agrar davlatga** aylandi. Sanoat sohasidagi siyosati samarali yuritish, uni innovatsion asosda tashkil etish, rivojlantirishda drayver va o'sish nuqtalarini belgilab olish, ishlab chiqarishga ilg'or texnologiyalarni jalb etish orqali sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligi hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilmog'chi.

Keng ko'lami islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 milliard dollardan oshdi. **Bunday muvaffaqiyatga erishishda yalpi ichki mahsulotning chorak qismini tashkil etuvchi sanoat sohasi ulushi sezilarli bo'ldi.**

Hozir jahondagi murakkab geosiyosiy vaziyatga qaramay, O'zbekiston sanoati jadal o'smog'chi. Masalan, 2022-yilda sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi o'sishi 5,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Qozog'istonda 1,1 foiz, Rossiyada 0,6 foiz, Ozarbayjonda 1,1 foiz pasaygan. Mamlakatimizda sanoat sohasiga qaratilayotgan alohida e'tibor tufayli yutuqlar salmog'i tobora ortib bormog'chi. Xususan, **2022-yilda sanoat ishlab chiqarishi hajmi 551,1 trillion so'mga yetdi. Vaholanki, bu ko'rsatkich 1991-yilda 63 milliard so'm edi, xolos.** Yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat ishlab chiqarishi sohasining ulushi 2022-yilda 26,7 foizni tashkil etdi, sohaga jalb etilgan investitsiyalar hajmi joriy yilda 124,6 trillion so'mga yetdi.

Kecha "mamlakat xavfsizligini ta'minlash" bahonasida o'ta qattiq va mutlaqo mantiqsiz pasport tizimi amal qildi. O'sha davrda O'zbekiston hududida 60 dan ortiq tekshirish punkti tashkil etildi. Jumladan, **Xorazmdan Toshkent shahrigacha 17 ta, Farg'ona vodiysidan poytaxtgacha 8 ta** shunday punkt faoliyat ko'rsatdi. Bunday punktlarning vazifasi davlat va mil-lat xavfsizligiga "raxna solayotgan shubhali shaxslar"ni aniqlash, ularning respublika hududida erkin harakatlanishiga yo'l qo'ymaslik edi.

Vaziyat shu darajaga yetdiki, odamlar o'z yaqinlarining janoza tadbirlariga, to'y-ma'rakalariga ham bora olmay qoldi. Bahona bitta: tekshiruvchining yo pasportni yodidan chiqib qolgan yoki bunday shaxslar tekshiruvchilarda shubha uyg'otgan.

Tabiikiy, bunday holat odamlarimizda haqli noroziliklar keltirib chiqaradi. Ayniqsa, xorijdan kelgan mehmonlarning bunday punktlardan o'tishidagi jiddiy muammolar vaziyatini yanada keskinlashtirar, ularda O'zbekistonga ishonch kayfiyati so'nishiga sabab bo'ladi.

Bugun esa o'sha tekshiruv punktlari tugatildi. Mashhur qiziqchimiz aytgani kabi

"endi fuqarolarimiz o'zlarini bemalol o'zbekistonlikmiz, deya olyapti". Bugun yo'llarimizda hech qanday punktlar, postlar, sun'iy to'siqlar yo'q.

Tekshiruv punktlari tugatilishi oqibatida odamlar orasida muayyan darajada shakllanib borayotgan ishonchsizlik kayfiyati yo'qoldi, aholi va kuch ishlatar organlar o'rtasida o'zaro ishonch va samimiylilik rishtalari paydo bo'ldi.

Kecha odamlarimiz o'z peshona teri bilan ishlab topgan pulini naqdlashtirish borasida azob chekdi. Banklar bu vazifani uddalab berolmadi. Do'konlardan mahsulot oladigan bo'lsak, ularni narxidan 10 foiz qimmat olishga majbur bo'ldik. Bozordan mahsulot sotib olishdan ham murakkabroq muammo yo'q edi.

Bugun esa o'sha muammo tag-tugi bilan hal bo'ldi. **Barcha qishloq-shaharlarda plastik kartalardagi pullarni naqdlashtirishni kecha-yu kunduz amalga oshirish imkoniyati yaratildi.**

Ayni paytda pul-kredit siyosati sohasida ko'lami islohotlar amalga oshirildi, jumladan, **to'lov tizimlari rivojlantirildi, chet el valyutasi sotib olish imkoni yaratildi, naqd pul muammosi hal etildi, uzluksiz ishlovchi avtomatlashtirilgan bankomatlari faoliyat yo'lga qo'yildi.** Bu esa odamlarning ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamladi.

Kecha mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilganini ta'kidlash lozim. Kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar ro'yxati tuzildi, ularning munosib turmushini tashkil etish bo'yicha choralar ko'ldi. Qator dastur va konsepsiyalar yaratildi. Biroq bu ishlar samara bermadi. **Yuqorida qayd etganimizdek, kambag'allik darajasi pasaymadi, aksincha, salmog'i ortib boraverdi. Turar joyi bo'lmaganlar soni yildan-yilga ko'paydi. Ihsizlik muammosi hal etilmadi. Har yilgi hisobotlarda ish bilan ta'minlanganlar soni 700 mingdan bir million kishigacha etib taqdim qilingan bo'lsa-da, real hayotda ularning soni juda kam edi.**



Bugun esa inson, uning haq-huquqlari va baxt-saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor va muqaddas maqsadiga aylandi. Jamiyat qurilishi va davlat boshqaruvida ana shu muhim va ezuq g'oyaga suyanilmog'chi. Bunday siyosat "**davlat — inson uchun**" va "**inson — jamiyat — davlat**" tamoyili asosida amalga oshirilmog'chi.

Davlat byudjetining asosiy qismi ijtimoiy sohaga ajratilmog'chi. 2023-yil davlat byudjetidan 130 trillion so'm, ya'ni jami xarajatlarning salkam 50 foizi ijtimoiy sohaga yo'naltirildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini, ularning har bir qatlamini manzilli qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizim mexanizmi joriy qilindi. Xususan, 2017-yilda kam ta'minlangan 500 ming oila ijtimoiy yordam olgan bo'lsa, bugun 2 million dan ortiq oila ko'mak berilyapti. Ajratilgan mablag' esa 7 barobar ko'paydi.

Alohida e'tibor kam ta'minlangan oilalardagi bolalarga qaratilmog'chi. Bunday bolalarni parvarishlash uchun to'lanadigan nafaqa qamrovi kengayib, nafaqa tayinlashda inobatga olinadigan bolalar yoshi 14 yoshdan 18 yoshgacha etib belgilandi, mazkur to'lov muddati 6 oydan 12 oygacha hamda nafaqa miqdori o'ttacha 1,5 barobar oshirildi.

Masalaning huquqiy asoslari ham yaratildi. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda aholini ijtimoiy himoyalash masa-



lari huquqiy kuchga aylantirildi. Umuman, Bosh qonunimizda davlatning ijtimoiy sohada majburiyatlari bilan bog'liq normalar 3 barobar oshdi.

O'zbekistonda davlatning aholi ijtimoiy himoyasini to'laqonli ravishda ta'minlashga doir faoliyatida, so'zsiz, davlatimiz rahbarining 2023-yil 1-iyundagi farmoni bilan Prezident huzurida ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilishi katta voqea bo'ldi.

Kecha ming yillar davomida o'zaro qar-doshlik munosabatlarini yo'lga qo'yib kelgan, an'anaviy tarzda bordi-keldi aloqalar asosida yashagan qar-doshlarimiz — Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston bilan chegaralarimiz berk edi.

Hech qachon yodimdan chiqmaydigan manzara: 2014-yil, Namangan viloyatining Kosonsoy tumani. O'zbekiston — Qirg'iziston chegarasining bir tomonida mushptir ona,

2017-yil O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi chegaralar ochila boshladi. 2019-yilga kelib, O'zbekiston va Tojikiston chegarasidagi 17 ta nazorat-o'tkazish punkti faoliyati qayta tiklandi. Xuddi shunday ishlar boshqa qo'shni davlatlar bilan chegaralarda ham amalga oshirildi.

Kecha O'zbekistonda kichik vatani — o'z uyiga ega bo'lmagan yuz minglab oila bor edi. Odamlarni munosib uy-joy bilan ta'minlash haqida ko'p gapirilsa-da, muammoni real hayotda amalga oshirish imkoni bo'lmadi.

Katalakdek uylarda uch-to'rttalab oila o'nlab yosh bolalari bilan yashar, munosib turmush uchun ularni sanitar-iyog'iy qoidalarga amal qilinar, na normal ijtimoiy muhit bor edi. Hayotning og'irligidan oilaviy kelishmovchiliklar kuchayib, ajralish salmog'i yildan-yilga ortib bordi.

1991-2016-yillarda Toshkent shahrida 77,2 ming xonadonli 1287 ta ko'p qavatli uy qurildi, xolos.

Bugun mamlakatimiz katta qurilish maydoniga aylandi. Natijada **so'nggi 6 yilda mamlakatimiz bo'yicha 300 mingta yoki avvalgi yillardagiga qaraganda 10 barobar ko'p uy-joy bunyod etildi.** Mamlakatimizning qaysi hududiga bormang, barchasida uy-joy qurilishi jadal davom etmog'chi. Ba'zan odam hayron qoladi: nahotki, O'zbekistonda o'z kichik vatani — uy-joyga ega bo'lmaganlar shunchalik ko'p bo'lsa?

Ha, haqiqatan ham shunday edi. Bugun O'zbekistonda har bir oilani uy bilan ta'minlash davlat oldidagi eng katta vazifaga aylandi. Shu ma'noda, Prezidentimiz 2023-yil 13-aprelda imzolagan "**2023-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida**"gi farmoni alohida ta'kidlash lozim.

Kecha aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish borasida muayyan ishlar qilingan bo'lsa-da, bu borada to'laqonli faoliyat ko'rsatish imkoniyati yo'q edi. Ko'plab islohotlar o'tkazishga harakat qilingan, ularning samaradorlik darajasi esa past bo'ldi.

Madaniyat maskanlarini boshqarishning huquqiy bazasi juda eskirgan, madaniyat va san'at xodimlarini ijtimoiy himoyalash tizimi yaroqsiz holga kelib qolgan. Uzoq yillar davomida "**Madaniyat to'g'risida**"gi qonun qabul qilinmadi.

Bugun esa madaniyat va san'at tom ma'noda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. 2017-2023-yillar mobaynida madaniyat va san'at sohasiga 4 ta qonun, Prezidentning 35 dan ortiq farmon va qarori, hukumatning 100 dan ortiq qaror va farmoyishi qabul qilindi.

Mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bora 2021-yil 23-yanvarda "**Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida**"gi qonun qabul qilib, madaniyat va san'at muassasalari, ijodiy uyushma va birlashmalarning huquqiy maqomi belgilandi, ijodkorlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy baza yaratildi. Ilk marotaba 15-aprel Madaniyat va san'at xodimlari kuni etib belgilandi.

Milliy va jahon madaniyati namunalari bilan aholiga sifatlil madaniy xizmat ko'rsatish maqsadida O'zbekiston davlat filarmoniyasi, O'zbekiston teatr arboblari uyushmasi, Xalqaro festivallar direksiyasi, "Bahor" davlat raqs ansambli faoliyati qayta tiklandi. Shuningdek, O'zbek milliy maqom san'ati

va Respublika baxshichilik san'ati markazlari hamda uning huzurida Baxshichilik san'atini rivojlantirish jamg'armasi, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa instituti, Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada instituti, hududlarda namunaviy maqom va baxshichilik ansambllari tashkil etildi.

Kecha mamlakat ta'lim tizimi muammolar girdobida o'ralashib qolgan edi. 2016-yilda bolalarni maktabgacha ta'lim tizimiga qamrab olish darajasi 27 foizdan oshmasdi. Bunday muassasalarning moddiy-texnik bazasi o'ta nochor bo'lib, binolari deyarli yaroqsiz holga kelib qolgan, bog'chalarni malakali tarbiyachilar bilan ta'minlash barchani tashvishga solardi. Xususi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish amri mahol edi.

Maktab ta'lim tizimidagi ahvol esa undan ham battar edi. **1997-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi zamonaviy talablariga javob bermas, uning konseptual jihatlari allaqachon eskirgan, samaradorlik darajasi juda past bo'lgan.**

Kasb-hunar kollejlarni tashkil etish biror samara bermadi.

Oliy ta'lim tizimidagi ahvol ham deyarli qoniqarsiz edi. **2016-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, yoshlarni oliy ta'limga qamrab olish darajasi 9 foizdan oshmadi.** Shu davrda mamlakatimizda birorta ham nodavlat oliy ta'lim muassasasi tashkil etilmadi. Sirtqi ta'lim tizimi yopildi.

Bugun esa ta'lim tizimi tom ma'noda yangilanmog'chi. **2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 72 foizga yetdi.**

Maktab ta'limida qisqa vaqt ichida qo'shimcha 700 ming o'quvchi o'rni yaratildi, mutlaqo yangicha mazmun va shaklga ega bo'lgan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan 200 ga yaqin maktab hamda 400 ta xususi maktab tashkil etildi.

Maktab ta'limi yaxshilanishida ta'limga zamonaviy metodika, sifat va raqobat kirib kelishi, darsliklarning eng ilg'or xorijiy tajribalar asosida to'liq yangilanishi, maktablarga moslab loyihaviy muallimlar taklif etilishi alohida rol o'ynadi. Ayniqsa, o'qituvchi va murabbiylar mehnatiga munosib haq to'lash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rilishi ushbu soha mutaxassislarini nufuzini yanada oshirdi.

2022-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, yoshlarni oliy ta'limga qamrab olish darajasi 38 foizga yoki 4,2 barobar ortdi. **Oliy ta'lim muassasalarining soni 2016-yildagi 77 tadan bugungi kunda 210 taga oshdi.** Shuningdek, 65 ta nodavlat oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi, xorijiy oliy ta'lim muassasalari soni 4,2 barobar ko'paydi.

Qisqa vaqt ichida avvallari biz uchun mutlaqo notanish, tasavvurimizda ham bo'lmagan, mohiyatini yangi tushunchalar, atamalar paydo bo'ldi. Gap "**Yangi O'zbekiston**", "**Uchinchi Renessans**", "**Prezident Xalq qabulxonalarini**", "**Ijtimoiy axloq**", "**Ma'rifatlil jamiyat**", "**Yangi ma'naviy makon**", "**Davlat — inson uchun**" kabi ko'plab yangi atamalar xususida ham emas.

Eng asosiy, bugun shu kabi tushunchalar mamlakatimiz aholisining real hayotiga to'liq kirib kelgani, ular xalqimiz hayotida aniq samara va natijalar berayotganidir. Aslida, "**Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!**" degan bosh g'oyaning ro'yobi ham shunda deb o'ylaymiz.

OCHIQ MULOQOT OLDIDAN

O'ZGARAYOTGAN TADBIRKORLIK TAFAKKURI

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK RIVOJINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQMOQDA

Dilshod ULUG'MURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – iqtisodiyotning tayanch kuchi, aholi bandlegi va hayot tarzini yaxshilovchi muhim tarmoq. Shu bois, rivojlanishni ko'zlagan har bir mamlakat ularni qo'llab-quvvatlash, erkin faoliyat yuritishi uchun kengroq qulayliklar yaratishga katta e'tibor qaratadi.

Qayd etish joizki, yurtimizda bu bora-dama amalga oshirilayotgan ishlar diqqatga sazovor. Binobarin, yangi O'zbekistonda barpo etishda ularning fidoyi mehnati, innovatsion fikr va yondashuvlari, tashabbuslari har qachongidan muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish tizimlari ko'rinib olgan. Tadbirkorlik oldidagi muammo yoki kamchiliklar mamlakat taraqqiyotiga to'siq sifatida baholalanadi. Har yili tashkil etiladigan Prezidentimizning soha vakillari bilan ochiq muloqoti va unda bildiriladigan fikr-mulohazalar bunga yaqqol bir misol bo'la oladi. Shu jihatdan olganda, ochiq, samimiy va amaliy natijasi bilan alohida ajralib turuvchi muloqot tadbirkorlar intiq kutadigan an'anaviy yirik tadbirga aylangan.

2021-yildan buyon yurtimizda 20-avgust — Tadbirkorlar kuni sifatida nishonlab kelinadi. Mazkur sana munosabati bilan joriy yilda ham davlatimiz rahbarining O'zbekiston ishbiarmonlari bilan navbatdagi ochiq muloqoti o'tkazilishi kutilmoqda.

Do'stona va ishonch ruhini beruvchi ochiq muloqotdan katta natijalar kutilmoqda. U orqali tadbirkorlarni qaynab kelayotgan tizim muammolari aniqlash, ularni hal qilish yo'llarini topish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yurtimizda ishbiarmonlik muhitini rivojlantirishga erishish ko'zlanmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan ikki yilda tadbirkorlar tayyorgarlik doirasida tadbirkorlardan ishbiarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha 27 mingdan ortiq murojaat va takliflar kelib tushgan hamda ular yangi islohotlar dasturini shakllantirish, tadbirkorlik faoliyatida yengilliklar yaratish imkonini berdi.

Tadbirkorlik ruhi — kambag'allikni qisqartirish yo'li

Tadbirkorlik yangi ko'nikma va o'zgarigan tafakkur, o'z qo'lli bilan muvaffaqiyat ehsini oshirish demakdir. Shu ma'noda, uni kambag'allikning oldini oluvchi muhim vosita, desak bo'ladi. Zotan, kambag'allik va uning oqibatlaridan aziyat chekadigan odamlar tumush darajasini oshirish bugun dunyo hamjamiyati diqqat markazidagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois, 2015-yilda BMT Bosh Assambleyasida "Barqaror taraqqiyot sohasidagi maqsadlar" qabul qilinib, yangi ming yillik ostonasida turgan dunyoda tinchlik, farovon hayot va

adolat tamoyillarini yanada mustahkamlash maqsadlari ilgari surildi. Unda eng asosiy vazifa sifatida esa 2030-yilgacha qashshoqlikning barcha ko'rinishlarini sekin-asta bartaraf qilib borish nazarda tutilgan.

Mutaxassislar mamlakatlar tajribasida kambag'allikni qisqartirishda aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni nihoyatda katta bo'layotganini ta'kidlaydi. Chunki aynan shu yo'l yangi ish o'rnlari tashkil etishga zamin yaratadi. Ish o'rni esa muqim va mo'may daromad manbai, munosib hayot tarzi, degani. Boshqacha aytganda, kichik biznes iqtisodiy o'sish sur'atlarini belgilaydi. Yangi ish joylari tashkil etilishida yirik korxonalar qarayanda ancha kam xarajat talab qiladi.

Tadqiqotlarga ko'ra, O'zbekistonda kambag'allik darajasida bo'lganlar mamlakatimiz jami aholisining taxminan 12-15 foizini tashkil etmoqda. Bu 4-5 million kishining bir kunlik daromadi 10-13 ming so'mdan oshmaydi, degani. Bunday muammolarni hal etish uchun, umuman, iqtisodiy taraqqiyotga erishish bo'yicha munosabatlarni tartibga soluvchi tizimni yo'lga qo'yish maqsadida kambag'allikni qisqartirishga mas'ul vazirlik tashkil etildi. Natijada aynan ushbu masalada chuqur shug'ullanuvchi tizim yaratildi. Aholi bilan muloqot mahallalarga, xonadonlarga ko'chdi. Kambag'allik ildizlari tahlil qilinib, uni kamaytirish choralarini kuchaytirildi. Odamlarga ishbiarmonlik kayfiyatini berish choralarini amaliy harakatga ko'chdi. Eng asosiy, bu kabi ishlar muntazamlik kasb etdi va shaxsan davlatimiz rahbari nazoratiga o'tdi. Yirik yig'ilishlar mavzusi aynan kambag'allikka bag'ishlandi.

Jumladan, joriy yil 15-may kuni davlatimiz rahbari raisligida kambag'allikni qisqartirish va bandlekni ta'minlash chora-tadbirlari muhokamasini yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda mamlakatimizda inson manfaatlarini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar tahlil etilishi barobarida, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha alohida tizim joriy qilingani qayd etildi. Xususan, barcha tumanlar sharoitiga ko'ra 5 toifaga ajratilib, tabaqalashgan yengilliklar berildi. Natijada o'tgan yili 1 million nafar, bu yil birinchi chorakda 210 ming aholi kambag'allikdan chiqarildi.

Har yili oilaviy tadbirkorlikka 13 trillion so'm kredit va 1 trillion 500 milliard so'm subsidiya ajratilayapti. "Ijtimoiy himoya reyestri" orqali 2 million 300 ming muhojir oila, xotin-qizlar, yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan yurtdoshlarimiz moddiy yordam bilan qamrab olinadi.

Yig'ilishda natijalar hali yetarli emasligi, kambag'allikni kamaytirish, bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, kasbga tayyorlash va ish o'rnlari ko'paytirishga qaratilgan kompleks vazifa ekanini alohida qayd etildi.

Oxirgi besh yilda yurtimizda tadbirkorlar soni 285 mingdan 590 ming nafargacha ko'paygan. Bu bitta tumanda 2,5 mingdan ortiq yoki bir mahallada 50 nafardan tadbirkorlar soni shakllandi, degani. Agar davlat bo'yicha tadbirkorlar bilan manfaatli hamkorlik qilib, ularni qo'llab-quvvatlasa, joylarda bandlekni hal qilish imkoniyati ortadi.



Shu maqsadda iyun oyidan boshlab "20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis" dasturiga kirishildi. Unda ishtirok etish ixtiyoriy. Dasturga 2023-2024-yillarda jami 1 milliard dollar ajratiladi. Bu mablag' hisobidan tadbirkorlarga kambag'allik o'zini kasbga o'qitib, ishlari qisqartirishga qaratiladi. Natijada aynan ushbu masalada chuqur shug'ullanuvchi tizim yaratildi. Aholi bilan muloqot mahallalarga, xonadonlarga ko'chdi. Kambag'allik ildizlari tahlil qilinib, uni kamaytirish choralarini kuchaytirildi. Odamlarga ishbiarmonlik kayfiyatini berish choralarini amaliy harakatga ko'chdi. Eng asosiy, bu kabi ishlar muntazamlik kasb etdi va shaxsan davlatimiz rahbari nazoratiga o'tdi. Yirik yig'ilishlar mavzusi aynan kambag'allikka bag'ishlandi.

Jumladan, joriy yil 15-may kuni davlatimiz rahbari raisligida kambag'allikni qisqartirish va bandlekni ta'minlash chora-tadbirlari muhokamasini yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda mamlakatimizda inson manfaatlarini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar tahlil etilishi barobarida, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha alohida tizim joriy qilingani qayd etildi. Xususan, barcha tumanlar sharoitiga ko'ra 5 toifaga ajratilib, tabaqalashgan yengilliklar berildi. Natijada o'tgan yili 1 million nafar, bu yil birinchi chorakda 210 ming aholi kambag'allikdan chiqarildi.

Umuman, ushbu tizim orqali shu yilning o'zida 550 ming kishi kambag'allikdan chiqarilishi rejalashtirilgan.

Erkin bozorning imkoniyati ko'p

Yaqinda Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan mamlakatimizning joriy yil olti oyda iqtisodiy rivojlanishiga oid tahlili e'lon qilindi. Unga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyoti birinchi yarim yilida yuqori o'sish dinamikasini va beqaror tashqi muhit o'zgarishlariga chidamlilikini saqlab qolgan.

Investitsiyalar tarkibida markazlashtirilgan investitsiyalar ulushi 2022-yilning yanvar-iyun oylarida 13 dan 12,3 foizga kamaygan, o'z navbatida, markazlashtirilmagan investitsiyalar ulushi mos ravishda 87 dan 87,7 foizga oshgan.

Bu yurtimizdagi investitsiyaviy jarayonlarda xususiy sektor va xorijiy investorlarning o'rni, eng muhimi, ularning tadbirkorlik ishtiroqini oshayotganidan dalolatdir.

Iqtisodiy o'sishning asosiy omillari tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha kechik-

tirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarning o'z vaqtida qabul qilinishi bilan bog'liq.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar orqali samarali natijalarga erishilayotgani bor gap. Buni mahalliy va xorijiy tadbirkorlar bot-bot takrorlaydi.

Misol uchun, dunyoning 30 ta davlatida faoliyat yurituvchi "Indorama Industries" kompaniyalar guruhi tarkibiga kiruvchi "Indorama Agro" O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi yirik korxonalaridan biri hisoblanadi. 2018-yilda tashkil etilgan kompaniya yirik ishlab chiqaruvchi bo'lib, 50 ming gektardan ortiq maydon paxta, g'alla va boshqa ekinlar yetishtiradi. Korxonaga tegishli yana 25 ming gektar yer mustaqil ishlab chiqaruvchilarga jaraga berilgan. Korxonada 3000 dan ortiq kishi ishlaydi. Kompaniya O'zbekistonda qishloq xo'jaligining yangi amaliyotlarini joriy qilmoqda.

Korxonada tashkil etilgan dastlabki kundan qolgan klaster tizimini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi sohasiga ilg'or kompaniya tajribasini joriy etish bo'yicha faol ish olib bormoqda. Sirdaryo viloyatida "Indorama agro" 27 ming

gektar yerda dehqonchilik qiladi. Logistika markazi, paxta tozalash zavodi, mashina-traktor parki, biologik laboratoriya tashkil etilgan. Bundan tashqari, kompaniyaning Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlarida ham qator loyihalari mavjud.

— Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, soha vakillari faoliyatining huquqi kafolati, chet el investorlari uchun faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan zarur choralar ko'rilayotgani bizga katta imkoniyat bermoqda, — deydi "Indorama agro" kompaniyasi vakili Indranil Mujambar. — O'zaro ishonch va qulaylik bo'lsa, hamkorlik aloqalari kengayib boraveradi.

Darhaqiqat, sarmoyadorlar, ishbiarmonlar imkoniyatini kengaytiruvchi va imtiyozlarni nazarda tutuvchi, ularni iqtisodiy, huquqiy jihatdan himoyalab, qo'llab-quvvatlovchi qonunchilik mexanizmlari shakllantirilgani bugun ularning tom ma'noda iqtisodiyotning tayanch ustuniga aylanishida muhim asos bo'lmoqda. Yildan-yilga tadbirkorlik subyektlari, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uchun soliq, bojxona va boshqa sohalarda bir qator qulaylik va afzalliklar berilayotgani mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o'rnida ham o'z aksini topmoqda. Jumladan, O'zbekiston 2023-yilgi iqtisodiy erkinlik indeksidagi o'rnini 8 pog'onaga yaxshilab, 184 davlat orasida 109-o'rinni egalladi. Mamlakatimiz 2022-yilda 117-o'rinda edi.

Ma'lumot o'rinda aytish kerakki, indeks 1995-yildan beri "Heritage Foundation" xalqaro tadqiqot markazi tomonidan "The Wall Street Journal" bilan hamkorlikda tuziladi.

O'tgan yilga nisbatan O'zbekistonda iqtisodiy erkinlik darajasi 0,8 punktga oshdi va 56,5 ko'rsatkichga yetdi (maksimal sifatida 100 ball qabul qilingan — bu biznes uchun ideal sharoitlarni bildiradi). Indeksni tuzishdagi 12 omildan biri mamlakatdagi tadbirkorlik erkinligi ekanini inobatga olsak, yuqorida qayd etib o'tganimizdek, yurtimizda ishbiarmonlik muhiti yil sayin yaxshilanib borayotgani anglashiladi.



Tashabbuslar amaliy harakatga aylanadi

Yana Prezidentimizning tadbirkorlar bilan "ochiq muloqot"ga qaytamiz. Nafaqat tadbirkorlarimiz, balki oddiy odamlar hayotiga, iqtisodiyotimiz ravnagiga hissa qo'shuvchi mazkur tadbirning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Unda bildirilgan fikrlar amaliy harakatga aylanib, yangi-yangi tashabbus va g'oyalarni yuzaga chiqarishga sharoit, alohida huquqiy asos yaratilmoqda.

Jumladan, o'tgan yilgi "ochiq muloqot" dan so'ng davlatimiz rahbarining alohida qarori qabul qilindi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan "ochiq muloqot" doirasida tadbirkorlardan kelib tushgan 12 mingdan ortiq murojaatda ko'tarilgan tizimli muammolar yechimiga qaratilgan taklif va tashabbuslarni amalga oshirish hamda ushbu tadbirida belgilangan ustuvor vazifalarni bajarishga qaratilgan bir qator vazifalar belgilab olindi.

Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ishbiarmonlarga qulay biznes sharoiti yaratib berish O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy va ustuvor yo'nalishi bo'lib qolaveradi. Bunda bugungi va yaqin kelajakda doir ishlab chiqilgan dasturlardagi maqsadlar ijrosi asos bo'ladi. Jumladan, Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoit yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish belgilangan.

Shu vaqt mobaynida hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etilib, biznesinkubatorlar tizimi rivojlantirildi. Sharoiti og'ir tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratildi.

2026-yilga borib, tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasi yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizga darajasiga kamaytiriladi. Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyati takomillashtiriladi.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatini boshlashi uchun zarur ma'lumotlardan erkin foydalanadi. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish ishlari izchil olib borilib, xususiy sektorga keng yo'l ochiladi. Iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillari yanada keng joriy etiladi.

Yana bir jihat — taraqqiyot strategiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan "ochiq muloqot"ni har yili o'tkazish belgilangan. Demak, tadbirkorlik borasidagi tashabbus va g'oyalarni amaliy harakatga aylantirishda davom etaveradi.

ISLOHOT ODIMLARI

SAHRO BAG'RIDA QAD ROSTLAGAN KORXONA

Qoraqalpog'istonda yil sayin turli sohalarda keng ko'lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida Prezidentimizning qator farmon va qarorlari qabul qilindi. Jumladan, keyingi olti yilda respublikada 15 trillion so'm investitsiya hisobidan 5 ming 300 dan ziyod yangi loyiha bajariladi. Tadbirkorlari soni esa ikki hissa ko'payib, 46 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratildi. Avvallari rivojlanishi sust bo'lgan olita tumanda ishlab chiqarish hajmi ikki-uch barobar ortib, respublika sanoatidagi ulushi 12 foizga yetdi.

Misolarga o'tadigan bo'lsak, Beruniy tumanidagi "Beruniy bug'doy klasteri" va "Rayhon apparel", Qorao'zak tumanidagi "Qoraqalpog' sement", Qo'ng'iro' tumanidagi "KKRasi kemikal", Nukus shahridagi "Azim hotel" korxonalarining ishga tushirilishi natijasida mingdan ziyod aholi ishli bo'ldi. Natijada yangi korxonalar tomonidan 300 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 20 million dollarlik mahsulot eksport qilindi.

Qoraqalpog'istoni iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri mineral xomashyo resurslarini qayta ishlash sanoatini kengaytirishdir. Bu borada ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib, qator yirik ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushirdi. Ayni paytda bu korxonalar tomonidan

150 dan ortiq yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Bu borada Qorao'zak tumanini alohida tilga olish joiz. Negaki, tumandagi "Qoraqalpog' sement" korxonasi loyihasining uchinchi bosqichi ishga tushishi munosabati bilan zavodning quvvati oshib, ko'plab yangi ish o'rnlari yaratildi. Bunday natijalarni Qoraqalpog'istonda har bir sohada olib borilayotgan islohotlar misolida ko'rish mumkin.

Tumanlarda qad rostlagan ishlab chiqarish obyektlari ko'zni quvontiradi. Zero, iqtisodiyotning yuragi sanalagan yirik ishlab chiqarish korxonalarini soni ko'paygani sayin xalqning yashash sharoiti yaxshilanib, aholining doimiy bandlegi ta'minlanmoqda.



Bundan besh yil ilgari kichik ko'lmda ish boshlagan "Qoraqalpog' sement" korxonasi qisqa vaqtda yuqori natijalarga erishdi. Mazkur korxonada 2017-yilgi o'z faoliyatini boshlaganda yiliga 200 ming tonna sement

ishlab chiqarigan bo'lsa, 2019-yilga kelib, bu ko'rsatkich 400 ming tonnani tashkil etdi.

Joriy yilning birinchi choragi yakunida korxonaning uchinchi bosqichi ishga tushishi natijasida sement ishlab chiqarish quv-

vati 1 million 400 ming tonnaga yetdi. Loyiha qiymati 75 million dollarni tashkil etgan korxonada dastlab 200 kishi mehnat qilgan bo'lsa, hozirga kelib yana 700 fuqaroning bandlegi ta'minlandi.

— Ushbu yirik ishlab chiqarish korxonasi chekka hududda, sahro bag'rida qad rostlagan bo'lsa-da, yildan-yilga o'zining ishlab chiqarish va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirib bormoqda, — deydi korxonaning tamnot bo'limi boshlig'i Ahror Zubayirov. — Sement ishlab chiqarish jarayonida korxonamiz 100 foiz muqobil energiyadan foydalanadi. Ishchi-xodimlarning oylik maoshi o'rtacha ikki yarim million so'mdan to'rt million so'mgacha. Ayni damda tayyor mahsulotlar Qoraqalpog'istonda tashqari Xorazm viloyatiga yetkazib berilmoqda. Kelajakda Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarini qurilish obyektlarini ham ta'minlashni rejalashtirganmiz. Sement ishlab chiqarishda xomashyoning 80 foizini o'zlashtirish tashkil etadi. Ohaktosh karyerdan qazib olingach, ishlab chiqarishga yetkazib beriladi. Xomashyo esa o'zimizda bor. Shuning uchun mahsulotimiz nisbatan arzon.

Ha, hozirda korxonadagi yirik stanok va dastgohlar doimo ishlab turibdi. Ularning aniq vazifasi va rejimi bor. Uskunalarimiz nazorat qilish ma'lum bir mutaxassisning zimmasiga yuklatilgan. Qulay ish muhiti, xodimlarga yaratilgan sharoit rahbariyat e'tiborda.

— Korxonada laboratoriyasida 20 nafar ishchi va chet ellik uch hamkorimiz bilan birgalikda ish olib bormoqdamiz, — deydi laboratoriya boshlig'i Rashid Rajabov. — Bu yerda fizika-mexanika, kimyoviy tahlil bo'limlari mavjud. Xitoylik hamkorlar bilan birgalikda keng miqyosda amaliy ishlar yo'lga qo'yilgan. Yaxshi dam — mehnatga hamdam, deganlaridek, xodimlarning munosib dam olishi uchun zarur sharoitlar mavjud. Ular uch mahall issiq ovqat bilan ta'minlangan, korxonada yotoqxonasidagi qulayliklardan mamnun.

Darhaqiqat, Qoraqalpog'istonda davlatimiz rahbarining farmon va qarorlarining izchil bajarilishi natijasida 2017-2023-yillarda yangidan-yangi korxonalar, tadbirkorlik subyektlari ish boshladi, turli yo'nalishlarda yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish quvvatlari ishga tushirildi. Natijada aholi daromadlarini oshirishda muhim o'rin egallovchi kichik biznes subyektlari soni 2023-yilga kelib, 24 mingtaga yetdi. Bu esa 2016-yilga nisbatan 2,3 barobar ko'p demakdir.

Hududning tashqi iqtisodiy faoliyati yil sayin kengayib, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni 196 tani tashkil etsa, hududiy eksportyor korxonalar soni joriy yilda 240 taga yetkazildi. Bu Qoraqalpog'istonda yirik sanoat loyihalari va istiqbolli g'oyalarni amalga oshayotganidan dalolatdir.

Minajatin O'ZBEKISTON, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



IFTIXOR

YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!



G'ayrat MAJID

**Aziz xalqim kutgan go'zal zamon keldi,
Diyorimga yangi bahor, bo'ston keldi,
Qalbimizga ziyo — ilm-u urfon keldi,
Shukrimiz bor ushlagan bu armon uchun,
Yangi hayot uchun,
Yangi O'zbekiston uchun!**

**Buxoriylar, Termiziylar ilmi yoddir,
Temuriylar, Nasafiyalar ruhi shoddir,
Azizlarning yotgan joyi ham oboddir,
Bobolardan meros qutlug' makon uchun,
Yangi hayot uchun,
Yangi O'zbekiston uchun!**

**O'zbek nomi bordir qutlug' xabarlarida,
Ona tilim yangrar oliy minbarlarda,
Hilpiraydi bayroq mudom zafarlarda,
Dillar osmon yaralgan keng imkon uchun,
Yangi hayot uchun,
Yangi O'zbekiston uchun!**

**Baland-baland uylar yurtning dil bayoni,
Yangi qo'shiq bu — adiblar xiyoboni,
Yorug' umid, maqsadlarning yo'q poyoni,
Inson qadri, inson baxti, inson uchun,
Yangi hayot uchun,
Yangi O'zbekiston uchun!**

**Saodatga yetdik, shukr, bardosh bilan,
G'amlar ketar sodiq hamroh, dardosh bilan,
Bugun xalqim inoq do'st-u qardosh bilan,
Oq manzillar, yangi davr-u davron uchun,
Yangi hayot uchun,
Yangi O'zbekiston uchun!**

**Ta'lim, ta'lim, ta'lim degan xitob bilan,
O'zbekiston yuksalmoqda shitob bilan,
Iyoningga quvvat indir kitob bilan,
Shiddat bilan yo'lga chiqqan karvon uchun,
Yangi hayot uchun,
Yangi O'zbekiston uchun!**

**Boshi ko'kka tegib turgan tog'im, Vatan,
Tinchlik bilan baxtdan masrur chog'im, Vatan,
Shavkatingga ko'z tegmasin, bog'im, Vatan,
Xalqim deya yashayotgan sarbon uchun,
Yangi hayot uchun,
Yangi O'zbekiston uchun!**

BIR NURONIY — O'N YOSHGA MAS'UL

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida "Bir nuroniy — o'n yoshga mas'ul" tamoyili joriy etilishi yoshlarni Vatanga muhabbat, ezigulik, shukronalik, mehnatsevarlik, umummilliy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashda samarali natija bermoqda.



KEKSALAR IBRATI — DONISHMANDLIK MAKTABI

Zulfiya MO'MINOVA, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Tarbiya eng nozik masala bo'lib, insonning axloqiy fazilatlarini shakllantiradi. Biz, o'zbeklarda "Qush inida ko'rganini qiladi", degan gap bor. Mahalla — ulkan uyimiz. Yoshlar o'z uyi ostonasidan chiqib dastavval mahallasiga ko'zi tushadi. Mahalladoshlaridan katta hayot ummonida suzishni o'rganadi. Kuzatish, taqlid, havas qilish, ergashish kabilar orqali inson qalbida odamiylik shakllanadi.

Nihol egilgan tomonga qarab o'sadi

Katta yoshlilar bolalarni qay tomonga boshlasa, ular o'sha tomonga ketadi. Bola go'dak yoshida eshitgan ertaklaridagi qahramonlarga o'xshagisi, odamlarga yaxshilik qilgisi, barchaga baxt ulashgisi va shu orqali qalbidagi faxr tuyg'usini his etgisi keladi. Umrimiz bino bo'lib hali hech bir bola ertaklardagi kabi johil, beshafqat, takabbur va tekinko' odamlarga o'xshashni orzu qilganiga guvoh bo'lganimiz yo'q. Mard, dono, halol va mehribon, ilmi bilan dunyoni ziyoga to'ldirgan ajdodlari bilan avlodlar va butun millat g'ururlanadi.

Yoshlar bamisoli bir nihol. Qay tomonga qarab egsang, o'sha tomonga qarab o'sadi. Shuning uchun farzand tarbiyasida kitob mu'tolaasi muhim o'ringa ega. "Bir nuroniy — o'n yoshga mas'ul" tamoyili bo'yicha mahallalarda tashkil etilgan guruhlar el-yurt ichida hurmat va e'tiborga ega bo'lgan, oilasi namunalik keksalardan iborat. Bu guruh, asosan, tarbiyasida muammosi bor yoshlarni o'talikka olgan. Maqsad, avvalo, mahalladagi uyushmagan yoshlarni, maktabda yaxshi o'zlashtirmaydigan o'quvchilarni, notinch oilalar farzandlarini aniqlab olishdan iborat.

O'g'il bolalar ko'proq yurist, nafaqadagi sport murabbiylari, hunarmand, o'qituvchi, dehqon, bog'bon zargar, temirchi, kulol, haydovchilar, zaxiradagi harbiylarga, qiz bolalar esa nafaqadagi nuroniy, psixolog, olim, adib, jurnalist, o'qituvchi, novvoy, qandolatchi, chevar va sartaroshlarga birlashtiriladi.

Yoshlar tarbiyasida yaxshi insonlarning namunasi asta-sekin ijobiy ta'sirini ko'rsatib boradi. Eng muhim jihati o'qish va uqish, halol mehnatga muhabbatni shakllantirish orqaligina baxtli yashash mumkinligiga ishonch orttirishdir. Shunda jaholat, yalqovlik, xudbinlik, hasadgo'ylik, tekinko'rlilik, boqimandlik illatlari yosh vujudidan sidirib tashlanadi. Uni kamtarlik, tirishqoqlik, mas'uliyat, atrofidagilarga va Vatanga daxldorlik kabi fazilatlar bilan boyitadi.



Huquqiy demokratik davlat qurilishida ijtimoiy adolatlarni qaror toptirishni ta'minlash, islohotlarni yangi mazmun bilan boyitish oila muhitida Vatanga qadri, mahallaga hurmat, e'tibor va mas'ullikdan boshlanishini yoshlarga samarali tushuntirish yo'llaridan biri mahallada o'tayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ko'rik-tanlovlarda yoshlar faolligini oshirishdir.

Oila farovonligi, Vatanga o'ta-ona uchun har qanday xizmatga bel bog'lagan yoshlardan haqiqiy vatanparvarlar chiqadi. Farzandlarimizning oqil, solih, mehnatsevar va yurtiga sadoqatli insonlar bo'lib kamolga yetishida nuroniylikning o'g'itlari va yo'l-yo'riqlari



nihoyatda muhim. Shu o'rinda bulung'urlik nuroniy, keksalar maslahat guruhi rahbari Toir ota Xo'jamurodovning dil so'zlariga quloq tutaylik.

"To'g'rilikka, yaxshilikka va mehnatga boshlayveraman"

— Mahallamizdagi o'nta uyushmagan yosh yigitga mas'ulman, — deydi Toir ota. — To'g'risini aytgan, hozir bir yigitlarning shijoati ichiga, kuchi tanasiga sig'magan, qiziqqon bir davr. Shu yoshlar bilan yurakdan gaplashib, xohishiga qarab, 4 nafarini tumanimiz markazidagi oshxonaga va restoranlarga ishga joyladim. Bugungi kunda ular 2 million so'mdan ortiq maosh olmoqda, asosiysi, ish bilan band. Ularni sportga jalb etgan holda mahalladagi sportchilar bilan tanishtirib, futbol jamoamiz safiga qo'shib qo'ydim. Uchtasini avtomobil tuzatadigan ustalariga shogird qilib berdim. Ustalar ularga kunlik maosh to'laydigan bo'ldi. Ikki yigitimiz kompyuter texnologiyasiga qiziqadi. Ularni kompyuter tuzatuvchi ustalariga birlashtirdim. Mana, ham hunar o'rganishmoqda, ham halol daromad topishmoqda. Yoshlarimizdan yana bittasi oliy o'quv yurtiga kirishga tayyorgarlik ko'ryapti. Homiylikimiz baraka topin, repititorlarning xizmat haqini to'lab berdi. Nasib etsa, bu yigitimiz o'zi orzu qilgan o'qishga albatta kiradi va kelajakda o'z kasbining ustasi bo'ladi, degan umiddamiz. "Bir nuroniy — o'n yoshga mas'ul" tamoyili bo'yicha qilgan ishlarim va tajribamdan kelib chiqib, tuman ko'rik-tanlovida birinchi o'ringa munosib topildim va viloyat bosqichiga yo'l oldim. Mahallamizdagi yoshlar tarbiyasi va



kelajagi uchun o'zimizni mas'ul deb bilaman hamda ularni to'g'rilikka, yaxshilikka va mehnatga boshlayveraman.

Yo'qotilgan vaqt topilmaydi

"Bir nuroniy — o'n yoshga mas'ul" ko'rik-tanlovining shahar bosqichida Tamara Oripovaning ishlari hakamlar hay'ati tomonidan yuqori baholandi va birinchi o'ringa munosib topildi. U Shahrisabz shahridagi markaziy kutubxonada kutubxonachi bo'lib ishlaydi va mahalladagi barcha yoshlarni kutubxon qilishga o'zini mas'ul hisoblaydi.

— Aslida, mahalladagi qaynonalar va yosh kelinlar bilan ish olib borar edim, bugun esa yoshlar qurshovidaman, — deydi shahardagi "Buvijonlar maktabi" guruhi rahbari Tamara Oripova. — Mahallamiz ahlining 40 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Mas'ulligimda o'nta yoshni har kungi faoliyati bilan tanishman. 6 nafarini kitob o'qishga jalb etish oson kechdi. Ularni ishga ham joylashtirdik, natijada oilasiga daromad keltirib, hayotga qiziqishi ham ortib bormoqda. Shuni quvonch bilan aytishim mumkinki, qizlar kutubxonlikdan tashqari chevarlikni ham uddalayapti.

Yigit-qizlar bilan ishlash jarayonida bu yoshlarni faqat kutubxonlik o'zgartira oladi, degan xulosaga keldim. Eng avvalo, yoshlarning oilaviy sharoitini o'rganib chiqdim va ularning kitob o'qimayotganiga sabab oilaviy muhit ekaniga amin bo'ldim. Uyida o'qishga sharoiti yo'qligini bilganim uchun ularni dastlab kutubxonada o'qitib boshladim. Asta-sekin ular kitoblarni uyiga olib ketishga ko'nikma hosil bo'ldi.

Kitobxonlikka bee'tibor o'ta-onalarga "Agar bolangiz kutubxonaga bormasa, kitob o'qib, tafakkuri teranlashmasa, erta bir kun jinoyatchilar safiga qo'shilib mumkin", deb qat'iy aytdim. Gapim ta'sir qildi shekilli, o'ta-onalarning o'zlarini ham kitob o'qiy boshladi. Hozir o'nta bolam ham kitobxon, barchasi ish bilan band.

Sariosiyo mahallasi yoshlari o'rtasida jinoyatchilik qayd etilmayapti. Bu borada hissam qo'shilganidan mamnunman. "Bir nuroniy — o'n yoshga mas'ul" ko'rik-tanlovida esa viloyatda ham birinchi o'rinni olishga harakat qilaman.

Tanlov nizomiga ko'ra, o'nta yoshni o'zimiz bilan birga olib borib, har tomonlama sinab ko'rishlariga tayyorman. "Yoshlar — bizning kelajagimiz" mavzusida tayyorlangan albom va ma'lumotlarimda bu yoshlarni dangasalik, jur'atsizlik, loqaydlik kabi illatlardan olib chiqish uchun amalga oshirgan ishlarim rejali va davomli ekanini aniq misollarda keltirganman.

Bugungi kunda farzandidagi noxush o'zgarishlardan aziyat chekayotgan oilalardagi o'ta-onalar ham oldimga kelmoqda. Mas'ulligimda o'nta yoshni hayotda to'g'ri yo'lga yo'naltirganimdan so'ng yana boshqa yoshlarni mas'ulligimda olishga, vaqtdan yutishga harakat qilaman. Axir xalqimizda "Yo'qolgan oltin topilar, ammo yo'qolgan vaqt topilmaydi", degan gap bor...

Yoshlarimiz yonlaridagi afsonalardan o'rnak oladi

O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jam'asining keng quloq yozgan ezgu ishlariga yurtimiz mahallalarida yashayotgan faxriylarimiz labbay deb javob bermoqda. Ayni kunlarda barcha hududlarda "Bir nuroniy — o'n yoshga mas'ul" ko'rik-tanlovining tuman bosqichlari qizg'in o'tmoqda.

Otaxon va onaxonlarning fikrini eshitish va tajribasi bilan o'rtoqlashish maqsadida Toshkent viloyati hududlari sari yo'l oldik. Tasodifni qarangi, Yangiyo'lda "Bir nuroniy — o'n yoshga mas'ul" ko'rik-tanlovining tuman bosqichi bo'lib o'tayotgan ekan. Muhtasham zalga kirib borganimizda esa yuzu ko'zlaridan nur yog'ilib turgan otaxon va onaxonlarning o'zaro bellashuvini bevosita kuzatish imkoniga ega bo'ldik. To'g'risi, ularga havas ham qildik.

Nega deysizmi? Chunki tanlov ishtirokchilari bo'lmish "II darajali mehnat faxriysi" Abdunabi Abdullaylovi, "Sodiq xizmatlari uchun" medali sohibasi Gulnora Jalilova, Samarqand mahallasi keksalar maslahat kengashi raisi Gulxayri Sherboyeva, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Muhayyo To'laganova, "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni sohibasi Gulnora Aliqulova va "Mehnat faxriysi" G'ofurjon Qo'chqorovning azmu shijoati, aql-u zakovati havas qilar darajada faxrli edi-da.

Tanlovni kuzatar ekanimiz, Yangiyo'l misolida nuroniylikning donishmandligiga, har qanday muammolarga yechim topishdagi tajribalari, tarbiyasida muammosi bor yoshlarning ruhiy o'zgarishlarga pedagogik yondashuvlari o'z samarasini berayotganiga guvoh bo'ldik.

Aslida, "Bir nuroniy — o'n yoshga mas'ul" ko'rik-tanlovida o'z vaqtini ayamay qatnashayotgan keksalarimizning umr yo'llari bir donishmandlik kitobidir. Tumanlarda o'tayotgan ushbu nufuzli ko'rik-tanlov zamirida qariyalarning tanlovga qadar qilgan ishlari, yuksak darajadagi tajribasi yoshlarning ezgu faoliyatiga keng yo'l ochadi. Yoshlarimiz yonlaridagi afsonalardan o'rnak oladi, ularni anglash bilan o'zini va dunyoni anglaydi.